

2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida Jizzax viloyatida jami 1634,4 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 124,8 %ni tashkil etdi.




Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 36,6 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2,2 %ni hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,5 %ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 74,8% yoki 1222,0 mlrd.so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 135,4%ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 23,0% yoki 375,8 mlrd.so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 99,7%ni tashkil etdi.


2019 yilning yanvar-sentyabr oylaridagi qurilish ishlari tarkibi

2019 yil yanvar-sentyabr oylarida viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlaring qariyib 74,8% kichik biznes subyektlari hissasiga to'g'ri keladi.



2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari tarkibi (jamiga nisbatan %da)

2019 yil yanvar-sentyabr oylarida viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlaringin qariyib 74,8% kichik biznes subyektlari hissasiga to'g'ri keladi.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaring ulushi 2,2 %ni tashkil etdi. Viloyatda asosan qurilish ishlaring asosiy qismi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilib, jami qurilish ishlaring 74,8 %ni tashkil etdi yoki 1222,0 mlrd.so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 135,4 %ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 375,8 mlrd. so'mni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmning 23,0 %ga teng bo'ldi. Shu bilan birga o'tgan yilning mos davriga nisbatan 99,7 %ni tashkil etdi.



2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari (jamiga nisbatan, %da)


Viloyatda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin eng yuqori ulushi Jizzax shahrida (87,4 %), Sharof Rashidov tumanida (82,3 %), Paxtakor tumanida (75,2 %), G'allaorol tumanida (68,6 %), Yangiobod tumanida (61,2 %) to'g'ri keldi.



● Yirik qurilish tashkilotlari ● Kichik korxona va mikrofirmalar ● Norasmiy sektor

Kichik korxona va mikrofirmalari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin eng kam ulushi Zafarbob (31,5 %) va Arnasoy tumanlarida (37,3 %) kuzatildi. Bu hududdagi qurilish ishlaringin asosiy qismi norasmiy sektor hissasiga to'g'ri keldi – hududdagi jami qurilish ishlaringin 68,5 %, Arnasoy tumanida 62,7 %ni tashkil etdi.

**2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlaringin o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da)**




Qurilish ishlaringin shahar va tumanlar kesimida eng yuqori o'sish sur'ati Jizzax shahar hamda Arnasoy, Baxmal, G'allaorol tumanlarida kuzatildi. Arnasoy tumanida asosan qurilayotgan namunaviy loyihalardagi turar joylarining qurilish ishlari jadal borishi tufayli o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 133,0 % bo'lishi ta'minlandi. Baxmal tumanida yuqori o'sish sur'ati, yani 131,7 % kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan qurilgan ijtimoiy soha obyektlari va barpo etilayotgan sotish uchun mo'ljallangan turar joylar qurilishining natijasidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda noturar binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmidan 77,5 %ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,9 % punktga kamaydi. Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi joriy davrda 13,4 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,9 % punktga kamaydi, maxsus qurilish ishlari hissasiga esa 9,1 %ga to'g'ri keldi.



2019 yil yanvar-sentyabr oylarida shahar va tumanlar kesimida bajarilgan qurilish ishlari (mlrd.so'm)


Shahar va tumanlar kesimida bajarilagan qurilish ishlarining eng katta hajmi Jizzax shahrida 730,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Buning sababi Shahar qiyofasini tubdan yangilash, sotish uchun qurilayotgan ko'p qavatli uylar, muhandislik kommunikatsiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, ijtimoiy soha va ko'ngil ochish maskanlarini barpo etilayotganini takidlash mumkin.



Shu bilan bir qatorda qurilish ishlari yuqori sur'atlarda bajarilayotgan qurilish ishlari hajmi Sharof Rashidov tumanida kuzatildi. Bajarilgan qurilish ishlari 235,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bajarilgan qurilish ishlarining asosini namunaviy loyhalar asosida qurilayotgan uylar qurilishi tashkil qilmoqda.


2019 yil yanvar-sentyabr oylarida qurilish ishlaringin Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

2019 yil yanvar-sentyabr




- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

2018 yil yanvar-sentyabr



- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

**2019 yil yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha qurilish ishlari**
(mlrd.so'mda)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi ishlarining qurilish loyhalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallangan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 78,4 %ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatgichga nisbatan 0,9 % punktga kamaydi. Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 13,4 %ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,9 % punktga kamaydi. Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari xissasida esa 9,1 % to'g'ri keldi hamda o'tgan yildagi ko'rsatgichga nisbatan 2,8 % punktga ko'paydi.

**2019 yil yanvar-sentyabr oylarida mulkchilik shakllari
bo'yicha qurilish ishlari tarkibi
(jamiga nisbatan ulushi, %da)**



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 1590,2 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 97,3 %ni tashkil qildi.

2019 yil yanvar-sentyabr oylarida shahar va tumanlar
kesimida qurilish ishlari,
(jamiga nisbatan ulushi, %da)



Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilagan qurilish ishlarining hajmini viloyatda eng yuqori ulushi Jizzax shahriga 44,7 %ga to'g'ri keldi. Shu bilan bir qatorda Sharof Rashidov tumaniga 14,4 %, G'allaorol tumaniga 7,2 % va Paxtakor tumaniga 6,9 %ga to'g'ri keldi.

**Jizzax viloyat statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Nashr uchun mas'ul: D.Mullajonov
Aloqa telefoni: (0371) 230-83-55